



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 20-noyabr

651-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg‘i-energetika resurslari iste‘molchilarini hamda bino va inshootlarni energiya iste‘molini energiya auditidan o‘tkazish tartiblarini belgilash to‘g‘risida” 2024-yil 19-oktabrdagi 690-son qarori ijrosi haqida”gi 527-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg‘i-energetika resurslari iste‘molchilarini hamda bino va inshootlarni energiya iste‘molini energiya auditidan o‘tkazish tartiblarini belgilash to‘g‘risida” 2024-yil 19-oktabrdagi 690-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 6-noyabrdagi 527-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 19-oktabrdagi 690-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 527-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:  
quyidagilar:

Yoqilg‘i-energetika resurslari iste‘molchilarini majburiy energiya auditidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Bino va inshootlarni energiya iste‘molini energiya auditidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshirishda energiya auditidan o‘tkazish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo‘yicha vakolatli organ etib belgilanganligi;

2024-yil 1-noyabrdan boshlab foydalanish maydoni 200 kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan bino va inshootlarning energiya samaradorligi toifasini aniqlash uchun “A”, “B”, “C”, “D”, “E”, “F” va “G” belgilari joriy etilishi;

bunda “A” toifasi energiya samaradorligi eng yuqori bo‘lgan bino va inshootlarni belgilash va tegishli ravishda “G” toifasi energiya samaradorligi eng kam bo‘lgan bino va inshootlarni belgilash uchun qo‘llanilishi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda joriy yil yakuniga qadar foydalanish maydoni 200 kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan bino va inshootlar uchun energiya auditorlari tomonidan o‘tkazilgan energiya auditori yakunlari bo‘yicha tayyorlangan hisobotlar va energetika pasportlarining elektron reyestrini yuritish uchun mo‘ljallangan maxsus elektron platformani ishlab chiqib, ishga tushirilishini ta‘minlashi;

Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda - O‘zenergoinspeksiya) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda har yili 1-oktabrga qadar keyingi besh yilda energiya auditidan o‘tkaziladigan iste’molchilar ro‘yxatini shakllantirib, Davlat energetika reyestriga kiritishi va uning e’lon qilinishini ta’minlashi;

O‘zenergoinspeksiya Energetika vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda energiya auditorlar uchun yoqilg‘ienergetika resurslari iste’molchilarida hamda bino va inshootlarda energiya auditidan o‘tkazishni belgilovchi texnik topshiriq, dasturlar, energetika pasporti va tashkiliytexnik chora-tadbirlar rejalarining namunaviy shakllarini hamda energiya auditorlariga qo‘yiladigan minimal talablarni ishlab chiqib, qo‘shma qaror bilan tasdiqlashi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi e’tiborga olinsin.

3. Tuman hokimligi matbuot kotibi (Sh.KenjayeV), qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (A.Xudoyberdiyev) manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-oktabrdagi 690-son qarorining mazmunmohiyatini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**